



MAMLAKATIMIZ MUDOFAA QOBILIYATINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

3-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev huzurida mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash masalalari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazildi.

Yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash, harbiy xavfsizligini ta‘minlash masalalari, shuningdek, joriy yil 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosining borishi ko‘rib chiqildi.

Dunyoda keskinlik va mojarolar o‘choqlari saqlanib qolayotgani, geosiyosiy raqobat kuchayib, yangi xatar va tahdidlar xavfi ortib borayotgani ta‘kidlandi. Ayrim mintaqalardagi harbiy harakatlar jiddiy gumanitar va iqtisodiy oqibatlarga olib kelayotgan notinch xalqaro vaziyat sharoitida mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash hamda xavfsizligini ta‘minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mudofaa vaziri qo‘shinlarning jangovar shayligini oshirish, qism va bo‘linmalarni tezkor tayyorlash, ularni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikalar bilan ta‘minlash, harbiy-ma‘muriy sektorlar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida axborot berdi.

Rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasi va jangovar harakatlar tajribasini

o‘rganish, harbiy boshqaruv va tayyorgarlik tizimiga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, qo‘shinlar samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalar, jumladan, uchuvchisiz tizimlar va raqamli boshqaruv yechimlarini keng qo‘llash zarurligi qayd etildi.

Shuningdek, harbiy-ma‘muriy sektorlar, poligonlar, ta‘lim muassasalari va moddiy texnik ta‘minot obyektlari infratuzilmasini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish hamda rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi.

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni izchil davom ettirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, zamonaviy qurol-yarog‘ va texnologiyalarni o‘zlashtirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Yig‘ilish yakunida davlatimiz rahbari Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish va mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo‘yicha tegishli vazifalarni belgilab berdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

8-MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI MUNOSABATI BILAN MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda mo‘tabar ayol zotiga ulkan ehtirom ko‘rsatish, davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o‘zining samarali mehnati, boy bilim va tajribasi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida faol qatnashib, Yangi O‘zbekistonda barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo‘lida alohida tashabbus va ibrat ko‘rsatib kelayotgan, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo‘shayotgan xotin-qizlarni munosib taqdirlash maqsadida quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri” faxriy unvoni bilan

Bobomurodova Xosiyat — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoira

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Kariyeva Bernara Raximovna — O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi-ning xoreografiya kafedrasini professori

Toshova Moyra Nariyevna — Buxoro shahridagi “Shayxul Olam” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, Buxoro viloyati

Toshpulatova Klara Bekpulatovna — Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining texnik bo‘limi standartlash bo‘yicha yetakchi muhandis-texnolog, Qashqadaryo viloyati

Xalikova Mukaddas Shamaksudovna — O‘zbek Milliy akademik drama teatri aktyori

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abdrasuliyeva Juzingul Matekovna — Chimboy tumanidagi “Gujimli” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Aliyeva Zafara Jumabayevna — O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining amaliy san‘at ashvolari bo‘yicha eksperti

Axmedjanova Nasiba Muratovna — “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining “O‘ztemiryo‘lmashta”mir” aksiyadorlik jamiyati elektr mashina sexi izolyatsiya ustasi

Axmedova Zarifa Nishonovna — Sharof Rashidov tumanidagi “Zomin asali” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

➤ *Davomi 2-betda*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda xotin-qizlarni e‘zozlash, ularning ezgu orzu-utillishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘zining iqtidori, muhim g‘oya va tashabbuslari, ibratli amaliy ishlari va erishgan yutuqlari bilan yoshlarga o‘rnak bo‘lib kelayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o‘zgarishlar jarayonida faol ishtirok etib, yurtimiz ravnaqi yo‘lida bor kuch-g‘ayrati, zamonaviy bilim va malakasi, ma‘naviy-intellektual salohiyatini namoyon etayotgan qizlarimizni munosib rag‘batlantirish maqsadida:

1. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtidorli qizlarini a‘lo xulqi, noyob iste‘dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o‘qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta‘lim, fan, adabiyot, madaniyat, san‘at, sport, axborot texnologiyalari sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risidagi

takliflari ilovadagi ro‘yxatga muvofiq ma‘qullansin.

2. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlarga 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan bayram tantanalarida sovrindorlik diplomlari va ko‘krak nishonlari topshirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining har biriga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida pul mukofoti berilishini ta‘minlasin.

4. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalarining ibratli faoliyati, ularning noyob iste‘dodi va erishgan yutuqlarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi G‘.Mirzayev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 3-mart

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar ro‘yxati 2-betda.

AYOLLAR VA BOLALAR HUQUQLARINING HIMOYASINI KUCHAYTIRISH BO‘YICHA DOLZARB VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini yanada kuchaytirish, ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish yuzasidan takliflar hamda yangi tashabbuslar bilan tanishdi.

Mamlakatimizda erta nikoh, erta yoshdagi tug‘uruq hamda ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining oldini olish masalalariga oila institutini mustahkamlash jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishning muhim yo‘nalishi sifatida doimiy e‘tibor qaratib kelinmoqda.

Ushbu masalalar eng yuqori darajada bir necha bor muhokama qilinish, huquqni

muhofaza qilish organlari hamda boshqa mutasaddi idoralar oldiga aniq vazifalar qo‘yilgan. Ularning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida idoralararo kengash tashkil etilgan va qisqa muddatlarda amaliy takliflarni ishlab chiqish topshirilgan edi.

➤ *Davomi 2-betda*

XORAZM VILOYATIDAGI ISHLAR HOLATI VA ZAMONAVIY LOYIHALAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi va kelgusi ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda viloyatda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali ko‘plab sohalarda ijobiy natijalarga erishildi. Sanoat hajmi 2016-yildagi 2,8 trillion so‘mdan 34,3 trillion so‘mga yetdi, yalpi hududiy mahsulot 63 trillion so‘mni tashkil etdi. O‘tgan yili viloyatga 1 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb qilindi.

Shu bilan birga, erishilgan ko‘rsatkichlar hudud salohiyatiga to‘liq mos emasligi ta‘kidlandi. Ayniqsa, turizm sohasida noyob tarixiy va madaniy merosga ega bo‘lgan hududda sayyohlarning o‘rtacha qolish muddati 1-2 kun bilan cheklanmoqda.

Viloyatda 1 milliondan ziyod yoshlar yashaydi, har yili 35 ming nafar yosh mehnat bozoriga kirib keladi. Ularning ta‘lim-tarbiyasi, zamonaviy kasb-hunar egallashi va bandligini ta‘minlash hudud rahbariyatining doimiy e‘tiborida bo‘lishi zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Yosh avlodni Jaloliddin Manguberdi, Beruniy, Xorazmiy va Zamaxshariy kabi buyuk siymolarga munosib etib tarbiyalash bo‘yicha yangi tizimli yondashuvlar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

➤ *Davomi 2-betda*

Amir Temurning markazlashgan va qudratli, qonun ustuvor bo‘lgan adolatlari davlatni jahon sahnasiga olib chiqishi Ikkinchi Renessans davri boshlanishiga to‘g‘ri keldi. Sohibqiron faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, harbiy, qisqacha aytganda, davlatchilik siyosati dunyo tajribasining gultojiga aylangani bugun e‘tirof va e‘tibor markazidan mustahkam o‘rin olmoqda.

Tariximiz va qadriyatlarimiz qalqoni

Shunday davrlar bo‘ldiki, Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondashilib, bir yoqlama baho berib kelindi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng bunday qarashlar barham topdi, istiqlol bois, Amir Temurning buyuk sarkarda, davlat arbobi, ilm-fan, ma‘naviyat va ruhoniyat homiysi ekanini bildik. Uning jahon tarixida tutgan o‘rni, faoliyatini o‘rganishga va uni ommalashtirishga keng yo‘l ochildi.

Davlatimiz rahbari buyuk ajdodimiz shaxsiga to‘xtalib aytgan so‘zlariga diqqat qilaylik: “O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish davrini boshlab berdi”. Bu bilan har birimiz temuriylar davrida fan va san‘atning gullab-yashnagani Yevropada uyg‘onish jarayoniga hayotbaxsh ta‘sir etganini, umumjahon taraqqiyotiga ko‘maklashganini anglab, faxr va g‘ururga to‘lamiz.

Yurtimizning favzil oyida kechgan siyosiy-ijtimoiy hayoti mavzusiga bag‘ishlangan maqolamiz ibtidosida keltirilgan ushbu mulohazalar Prezidentimizning shu yil 5-fevraldagi “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san‘at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tanishgan har bir yurtdoshimiz ko‘nglidan o‘tgan bo‘lsa, ajab emas. Hujjatda Sohibqiron siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, o‘zlikni anglash, an‘ana va qadriyatlarimizni tiklash borasida xalqimizga ulkan ma‘naviy kuch bag‘ishlab kelayotgani urg‘ulanadi.

Mamlakatimiz milliy rivojining yangi bosqichi — Uchinchi Renessansga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va Turon tamaddunidagi o‘rni hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o‘rganish, yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirish maqsadlari aks etgan qarorda keng ko‘lamli vazifalar qamrab olingan.



Fevral sarhisobi

JARAYON SHIDDATI VA MOHIYATI ENG QISQA OYDA ZALVORLI VA SHUKUHLI VOQELIKLAR KO‘P BO‘LDI

Zero, hujjatning asosiy maqsadlaridan biri yosh avlodni yangi O‘zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan mas’uliyatni inobatga olib, ushbu yo‘nalishdagi tashkiliy-amaliy, ilmiy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish hisoblanadi.

Fevral oyida xalqimiz qalbiga yanada yaqin va mo‘tabar ayyomga aylanib borayotgan muborak Ramazon oyi kirib keldi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz yetakchisining 16-fevral kuni e‘lon qilingan “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori keyingi yillarda mamlakatimizda inson qadri, huquq va manfaatlarini ta‘minlash, jamiyatimizda tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, ehtiyojmand toifalarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi keng ko‘lamli islohotlarimizni o‘zida aks ettirgan hujjat bo‘ldi.

Diniy-ma‘rifiy, madaniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug‘lash maqsadida yurtimiz bo‘ylab “Ramazon — mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi” degan ezgu g‘oya asosida muqaddas oyini munosib kutib olish hamda yuqori saviyada o‘tkazish choralari belgilandi

va bu ishlar ayni kunlarda izchillik bilan ado etilyapti. Qarorda nazarda tutilganidek, bunda kam ta‘minlangan, ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mahallalarni o‘zaro hurmat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish, tabiiy muhitni asrash, muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh va qabristonlarni obod etish, Ramazon oyi bilan bog‘liq tadbirlarni isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymasdan, ixcham, mazmunli o‘tkazishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Davlatimiz rahbari qaror qabul qilingan kuni Ramazon oyida ehtiyojmand aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazganida ham chuqur ma‘no va yuksak insoniylik fazilatlarini mujassam. Bugungi kunda mamlakatimizda Ramazon oyida ehtiyojmand aholini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar qilinayotgani, bu xayrli tashabbuslar orqali Ramazon nafaqat shaxsiy ibodat oyi, balki jamiyatda mehr-oqibat, ahillik va o‘zaro g‘amxo‘rlikni mustahkamlaydigan ulkan ma‘naviy maktab sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz har bir mahallada ehtiyojmand

oilalarning aniq va shaffof ro‘yxatini shakllantirish, yordamlarni fuqarolarning dini, millati va ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, teng va adolatlari tarzda yetkazish shartligini alohida ta‘kidladi. Mas’ul idoralar bu borada qat‘i nazorat o‘rnatish topshirildi.

Joriy yil muborak Ramazon oyining boshlanishi 19-fevral kuniga to‘g‘ri keldi va uning arafasida davlatimiz rahbari O‘zbekiston xalqiga Ramazon tabrigi yo‘lladi.

“El-yurtimizning ijtimoiy-ma‘naviy hayotida alohida o‘rin tutadigan, insonni ezgu va savob ishlarga da‘vat etadigan ushbu oyini munosib tarzda o‘tkazish maqsadida bu yil ham mamlakatimizda katta tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahalla va uy-joylar, masjid va madrasalarni obod qilish, keksa, nogiron va yordamga muhtoj shaxslarning holidan xabar olish, qo‘shnilar, yaqin qarindoshlarga mehr va e‘tibor ko‘rsatish, ibodat va iftor marosimlarini tartibli o‘tkazishga xonadon va mahalla ahllari, jamoatchilik vakillari tarafidan alohida ahamiyat berilmoqda”, deyiladi Prezidentimiz tabrigida.

➤ *Davomi 3-betda*



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

➤ Boshlanishi 1-betda

Inson taqdiriga daxldor omil

Jamiyatning qay darajada rivojlanayotgani insonlarning kundalik hayotidagi o‘zgarish, ular o‘zini jamiyatda qanchalik kerakli, himoyalangan va qadrlangan deb his etishida aks etadi. Agar davlat siyosati inson taqdiriga bevosita ta’sir ko‘rsatmasa, aholining ehtiyojmand qatlami e’tibordan chetda qolsa, islohotlar qiymati yo‘qoladi. Davlatimiz rahbari islohotlar yurtimizning eng chekka va olis nuqtalariga ham yetib borishini istayotgani, buni barcha mutasaddilardan talab qilayotgani ham yuqoridagi omillar bilan asoslanadi.

Fevral oyida Prezidentimiz mutasaddilar ishtirokida Farg‘ona, Navoiy, Andijon viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida islohotlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarni muhokama qildi. Shuningdek, Toshkent va Surxondaryo viloyatlariga tashrif buyurib, hududlardagi bunyodkorlik ishlar, sanoat, qishloq va suv xo‘jaligi, qurilish, ijtimoiy va boshqa sohalardagi loyihalar bilan tanishdi.

Xususan, 4-fevral kuni Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda yer va qazilma boyliklari cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, hududda so‘nggi yillarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va axborot texnologiyalari sohalarida barqaror o‘sinh ta’minlangani qayd etildi.

Yig‘ilishda erishilgan natijalar xotirjamlikka asos bo‘la olmasligi ta’kidlanib, istiqbolidagi kechiktirib bo‘lmas vazifalar belgilab olindi, mavjud imkoniyatlar tahlil qilindi. Viloyatda investitsiya va eksport hajmini izchil oshirish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish masalalariga tizimli hamda manzilli yondashish lozimligi uqtirildi.

Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan 10-fevral kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda viloyatning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, 12-fevraldagi yig‘ilish kun tartibidan Andijon viloyatida islohotlar natijadorligi va ustuvor vazifalar muhokamasi o‘rin oldi. Unda yer resurslari cheklangan sharoitida har bir gektar yer, har bir loyiha hamda har bir investitsiya yuqori qo‘shilgan qiymat va barqaror ish o‘rni yaratishi shartligi ta’kidlandi. Bu viloyat rahbariyati oldidagi eng asosiy vazifa ekanini ko‘rsatib o‘tildi.

Prezidentimiz 20-fevral kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. Qoraqalpog‘iston ulkan maydoni va qazilma boyliklar zaxirasi bilan katta iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatga ega ekaniga e’tibor qaratildi.

Shuningdek, hudud iqtisodiyotida sezilarli o‘zgarishlarga erishilgani qayd etildi. Jumladan, 8 yil oldin hudud iqtisodiyoti aholi jon boshiga hajm bo‘yicha eng oxirgi o‘rinda bo‘lgan bo‘lsa, bugun 7-o‘ringa ko‘tarildi. Sanoat mahsulotining atigi 4 foizi eksportga chiqqan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 30 foizga yetdi. Umumiy eksport 2016-yildagiga nisbatan 3,5 karra oshib, 2,1 milliard dollar bo‘ldi.

Kelgusi 5 yilda hudud iqtisodiyotini 102,5 trillion so‘m’ga (2025-yilda 54,3 trillion so‘m bo‘lgan), aholi jon boshiga esa 51 million so‘m’ga yetkazish, sanoat va xizmatlar sohasida 7,2 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Yig‘ilishda investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida hududga avval berilgan imtiyozlar muddatini uzaytirish taklifi bildirildi. Prezidentimiz ushbu taklifni qo‘llab-quvvatladi.

Yig‘ilish yakunida davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘istonda belgilangan marralarga erishish uchun barcha imkoniyat va resurslarni to‘liq ishga solish, har bir tuman va mahallada aniq hisob-kitob hamda manzilli yondashuv asosida ish tashkil etib, aholi turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliy natijasini tezroq ta’minlash bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.


13-fevral kuni Prezidentimiz raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sinh sur‘atlarini ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilish avvalida o‘tgan yilgi makroiqtisodiy natijalar qayd etildi. Kamchilik va nuqsonlarga yo‘l qo‘ygan, tashabbus va faollik ko‘rsatmagan mutasaddi rahbarlar, viloyat va tuman hokimlari faoliyatini tanqid qilindi.

Davlatimiz rahbari 2026-yil uchun belgilangan ko‘rsatkichlarga to‘xtalib, 6,6 foizli iqtisodiy o‘sinh orqali yalpi ichki mahsulot hajmini 167 milliard dollarga yetkazish rejasi geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy tebranishlarni inobatga olgan holda shakllantirilgan ehtiyotkor prognoz ekanini ta’kidladi.



Fevral sarhisobi



JARAYON SHIDDATI VA MOHIYATI ENG QISQA OYDA ZALVORLI VA SHUKUHLI VOQELIKLAR KO‘P BO‘LDI

Hududlarni rivojlantirish, aholi farovonligini ta’minlash, inson qadriini oshirish mavzulari yig‘ilish va taqdimotlar chegarasini buzib, hududlarga amaliy tashrif ko‘rinishida davom etdi. Prezidentimiz 13-fevral kuni Toshkent viloyatining Ohangaron tumaniga tashrif buyurdi.

So‘nggi yillarda sanoat, ishlab chiqarish va tadbirkorlik jadal rivojlanish pallasiga kirgan hudud sifatida e’tirof etilayotgan viloyatdagi o‘zgarish, yangilanish va islohotlar natijalari bilan tanishgan davlatimiz rahbari dastlab yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Enco Group” korxonasida bo‘ldi.

Bugun iqtisodiyot tarmoqlari va aholi o‘sinh natijasida elektr energiyasiga ehtiyoj ortib borayotgani yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu bois, yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlariga ichki va tashqi bozorlarda barqaror talab shakllanmoqda.

Faoliyati ushbu talabni qondirishga qaratilgan “Enco Group” korxonasi Belarus Respublikasining “Energokomplekt” kompaniyasi bilan hamkorlikda “Eltech Industrial” texnoparkni hududida 21 gektar maydonda barpo etilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati qariyb 60 million dollarni tashkil etadi. Korxona to‘liq quvvatga chiqqanidan so‘ng 600 ga yaqin yangi ish o‘rni yaratiladi.

Davlatimiz rahbariga korxonaning kelgusidagi rivojlanish rejalari, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mahsulot turlarini ko‘paytirish hamda mahalliyashtirish darajasini oshirish bo‘yicha takliflar taqdimot qilindi.

Prezidentimiz tumandagi “Vades Group” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan yuqori texnologiyali loyiha bilan ham tanishdi. Mazkur korxonada identifikatsiya uchun mo‘ljallangan mikroprosessor modullari, simkatalar, shuningdek, transport, ijtimoiy va xalqaro to‘lov kartalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, “Infinity Copper Group” mis quvurlari va fitinglar ishlab chiqarish korxonasi faoliyati mamlakatimiz yetakchisining e’tibordan chetda qolmadi. Loyiha Xitoy va Germaniya kompaniyalari bilan hamkorlikda 10 gektar maydonda amalga oshirilmoqda, umumiy qiymati 36 million dollarga teng. Qurilish ishlari 90 foiz yakunlangan, loyiha doirasida 14,9 million dollar investitsiya o‘zlashtirilgan.

Tashrif davomida “Premier” maishiy texnika mahsulotlari korxonasi faoliyati bilan ham tanishildi. Kelgusida majmua to‘liq ishga tushishi hisobiga 87 million dollarlik import o‘rmini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilishi kutilayapti. Davlatimiz rahbari korxonaning ish jarayoni, mahsulotlari sifatini ko‘zdan kechirdi. Mutaxassislar va ishchilar bilan suhbatlashdi.

Shu yerning o‘zida korxonaning 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish dasturi taqdimot qilindi. Mamlakatimizdagi elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning ko‘rgazmasi bilan tanishildi. Shuningdek, “Eltech Industrial” texnoparkida amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli rejalalar to‘g‘risida ham axborot berildi.

— Elektrotexnika sanoatini iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylantirib, ko‘rsatkichlarni kelgusida o‘n milliard dollarga yetkazishni strategik maqsad qilib qo‘yishimiz zarur. Buning uchun ichki va tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda soha uchun yetuk, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga

aloqida e’tibor qaratishimiz shart, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz 26-fevral kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish uchun Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi. Amaliy safar davomida Termiz tumanidagi “Tomorga maktabi”, Jarqo‘rg‘on tumanida qurilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivi, u yerda faoliyat yuritayotgan xorijiy tillar va axborot texnologiyalari o‘quv markazi hamda 66-maktabda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. So‘ng viloyatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko‘rgazmasi hamda xorijiy investorlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan yirik loyihalar taqdimotida ishtirok etdi. Jamoatchilik vakillari ishtirokida Surxondaryo viloyatida umumiy qiymati 7,1 milliard dollar bo‘lgan 44 ta loyihani ishga tushirish va boshlashga bag‘ishlangan marosim bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz ramziy tugmani bosib, tog‘-kon sanoati, geologiya, yengil sanoat, mebelsozlik, oziq-ovqat, xizmat ko‘rsatish va turizm sohalarida yangi loyihalarining qurilishi va faoliyatini boshlab berdi. Jumladan, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Rossiya,



Tojikiston va mahalliy investorlar ishtirokida 741 million dollarlik 13 ta loyiha ishga tushirildi. Shuningdek, Termiz shahrida barpo etilgan etnosaharhachada bo‘lib, amalga oshirilgan ishlarni ko‘zdan kechirdi. Bundan tashqari, Termiz shahrida “To‘palang” suv ombori suvidan foydalanish hisobiga Surxondaryo viloyatida ichimlik suv ta’minotini yaxshilash loyihasining amaliy natijalari tahlil etildi. Davlatimiz rahbari shu yerda viloyatning gidroenergiya ko‘rsatkichlari hamda sohada amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Safarining ikkinchi kuni davlatimiz rahbari ishtirokida Surxondaryo viloyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz viloyat faollari, yoshlar va nuroniylar bilan muloqot qildi, har bir masala va yo‘nalish bo‘yicha ularning fikr-mulohazalari bilan qiziqdi. Hokimlar va mutasaddilarning hisobotlari tinglandi. Mamlakatimiz yetakchisi belgilangan vazifalar jirosini qat’iy nazoratga olish, har bir yo‘nalishda aniq natijaga erishish bo‘yicha tegishli topshiriqlar berdi.

— Surxondaryo nafaqat tabiati go‘zal zamin, balki ruhi baqovvat, g‘ayrati baland, oriyaati mustahkam insonlar yurtidir. Surxonni rivojlantirish yangi O‘zbekistonning janubiy

tayanch ustunini mustahkamlash demakdir, — dedi davlatimiz rahbari.

Hududlar taraqqiyoti va hayoti, mahalliy tadbirkor va ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash haqida gap ketar ekan, Prezidentimiz 4-fevral kuni imzolagan “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon, uning ahamiyati va mohiyati haqida gapirmasak bo‘lmas.

Hujjat mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarilishini kengaytirish, sanoat tarmoqlari va aholi iste’moli uchun zarur mahsulotlarni o‘zlashtirish hamda ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishda bozor mexanizmlarini keng joriy qilish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini tizimli kengaytirish, davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlar xaridini rag‘batlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish chora-tadbirlarini aks ettirgan.

Farmonning asosiy maqsadlari sifatida sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari sohasida yagona boshqaruvni joriy etish orqali yaxlit va

Dangalini aytganda, O‘zbekiston manfaati nuqtayi nazaridan, Pokiston portlari dengiz yo‘liga chiqishimiz uchun dunyo bozoriga eltuvchi darvozalarining oltin kaliti vazifasini bajaradi. O‘z navbatida, Pokiston ham o‘zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirish, mamlakatimiz bilan do‘stona munosabatda bo‘lish tarafdori.

Tashrif davomida davlatimiz rahbariga “Nishoni Pokiston” ordeni topshirildi. Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif “Nishoni Pokiston” davlatning eng oliy mukofoti ekanini, agar bundan ham yuksakroq mukofot bo‘lsa, unga ham eng munosib shaxs Shavkat Mirziyoyev bo‘lishini ta’kidlab, lutf etdi. Bu e’tirof Prezidentimiz bilan birga yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida xizmat qilayotgan xalqimizga ko‘rsatilgan yuksak ehtirom ramzi hamdir.

Shuningdek, Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig‘ilishi doirasida O‘zbekiston Prezidentiga Pokiston Milliy fan va texnologiyalar universiteti faxriy doktori va professori unvonlarini berish marosimi bo‘lib o‘tdi. Bosh vazir Shahboz Sharif davlatimiz rahbariga bu haqdagi tegishli sertifikatni topshirdi.

Ushbu unvonlar O‘zbekiston yetakchisining ijtimoiy-iqtisodiy va ta’lim sohalaridagi islohotlar, mamlakatni izchil modernizatsiyalash, fan va texnologiyalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik hamda akademik aloqalarni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun berildi.

Prezidentimiz davlat tashrifi doirasida “Ayvoni Sadr” qarorgohida Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Asif Ali Zardoriy bilan tort doirada va delegatsiyalar ishtirokida uchrashuv o‘tkazdi. O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, do‘stlik hamda strategik sheriklikni mustahkamlashning joriy holati va dolzarb yo‘nalishlari muhokama qilindi.

Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev Asif Ali Zardoriyni O‘zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17-19-fevral kunlari Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo‘ldi. Tinchlik kengashi AQSH Prezidenti Donald Trampning tashabbusi bilan tashkil etilgan. O‘tgan oyda O‘zbekiston Shveysariyaning Davos shahrida majoraning keskinlashuv xavfini kamaytirish, G‘azo sektorida iqtisodiy va ijtimoiy tiklanish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan Tinchlik kengashi ta’sislaridan biri bo‘lgani katta siyosiy voqea sifatida baholandi.

Davlatimiz rahbari 19-fevral kuni Vashington shahrida Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etdi. AQSH Prezidenti Donald Tramp raisligida o‘tkazilgan tadbirda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Bahrayn, Indoneziya, Argentina, Paragvay, Ruminiya, Misr, Qatar, Pokiston, Vengriya, Albaniya, Armaniston, Vyetnam, Kambodja, BAA, Turkiya, Kuvayt, Saudiya Arabistoni, Isroil, Marokash va boshqa davlatlar delegatsiyalari rahbarlari ham qatnashdi.

G‘azo sektorini qayta tiklash va gumanitar yordam ko‘rsatish, shuningdek, mintaqada tinchlik hamda barqarorlikni ta’minlash masalalari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari nutqida O‘zbekiston Tinchlik kengashini tuzish bo‘yicha tinchliksevar tashabbusini

qo‘llab-quvvatlagani va uni muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishda amaliy ishtirok etishini qat’iy tasdiqlagani ta’kidlandi.

— Ishonchim komil, kengash ishi G‘azo mintaqasini iqtisodiy va ijtimoiy qayta tiklash uchun qulay sharoit yaratishga imkon beradi, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston ushbu hududda turar joylar, bolalar bog‘chalari, maktab va shifoxonalar barpo etishga imkon qadar hissa qo‘shishga tayyorligini qayd etdi.

— Bizning uchrashuvimiz xalqaro birdamlik, tinchliksevarlik va Yaqin Sharqdagi vaziyatni yaxshilashga bo‘lgan umumiy intilishimizning yorqin ifodasidir. Biz yangi G‘azoni — iqtisodiyoti farovon, aholi uchun munosib turmush sharoitlariga ega bo‘lgan mintaqani barpo etish uchun ushbu tarixiy imkoniyatdan foydalanishimiz zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tadbirda boshqa xorijiy mamlakatlarning davlat, hukumat va tashqi siyosiy idoralari rahbarlari ham so‘zga chiqdi. Yig‘ilish yakunida Tinchlik kengashi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi.

Mamlakatning oltin fondi

Ko‘ksaroy qarorgohida 24-fevral kuni Prezidentimizning yoshlar bilan muloqoti bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari uchrashuv davomida mamlakatimiz kelajagining oltin fondi bo‘lgan yoshlarga ishonishini, suyanishini, ularning salohiyatini to‘la namoyon qilishlari uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishini ta’kidladi. O‘z navbatida, ishtirokchilar tomonidan bildirilgan turli sohalarga oid taklif va tashabbuslarni tingladi.

Uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslar ko‘lami va miqyosi doimgidek salmoqli bo‘ldi. Tadbir shaklan muloqot ko‘rinishida kechgan bo‘lsa-da, mazmunan davlat va yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy shartnomaning yangi modelini ifoda etdi. Ya’ni bu yerda yoshlar maydonga ijtimoiy himoya obyekti emas, taraqqiyot subyekti sifatida olib chiqildi.

Prezidentimiz yoshlar bilan muloqot doirasida “Raqamli texnologiyalar yo‘nalishida eng yaxshi startup” — “President Tech Award” loyihasi g‘oliblarining taqdimoti bilan tanishdi. Mazkur tanlov Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi ko‘magida 2023-yildan boshlab o‘tkazilmoqda. Uning umumiy mukofot jamg‘armasi 1 million dollarni tashkil etadi.

Tanlovda sun’iy intellekt, ijtimoiy texnologiyalar, MicroSaaS va AdTech, moliyaviy texnologiyalar va tadbirkorlik, o‘yin dasturlari hamda maxsus yo‘nalish — xakaton bo‘yicha eng namunalii loyihalar tanlab olinadi.

Ilk tashkil etilgan tanlovda to‘rt mingdan ziyod ishtirokchi qatnashgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ulan soni olti mingga yaqinlashdi. Jamoalarning soni esa 444 dan 862 taga yetdi. Davlatimiz rahbariga tanlov g‘oliblari o‘zlarining startap loyihalarini, ularning afzalliklari va amaliy samarasi xususida so‘zlab berdi.

— Biz kichik startaplar katta-katta loyihalarga, daromadli biznesga aylanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga tayyormiz. Buning uchun har bir startapchi bilan muloqot qilish, unga kerakli yordamini ko‘rsatish lozim, — dedi Prezidentimiz.

Yoshlarning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali kelajak kasblariga zamin yaratilayotgani, dunyo davlatlari ham yoshlarning startap loyihalariga alohida qiziqish bildirayotgani ta’kidlandi.

Prezidentimiz startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga mablag‘ yanada ko‘paytirilishini aytib, yoshlar o‘zlarining yangicha qarashlari va g‘oyalari bilan yana qaysi soha va yo‘nalishlarda izlanishi kerakligi yuzasidan tavsiyalarini berdi.

Yilning ikkinchi oyi taqdimot, yig‘ilish va qabullarga ham boy bo‘ldi. Jumladan, fuqaro aviatsiyasi, ko‘mir va uran tarmoqlarida amalga oshirilayotgan ishlar hamda navbatdagi loyihalar, urbanizatsiya va uy-joy qurilishi, suv resurslaridan foydalanish, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, qishloq xo‘jaligida yangi yerlarni o‘zlashtirish hamda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan takliflar bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazildi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari huzurida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi madaniyat maskanlari loyihalarini, texnik tarbutga solish sohasi, fozaga sun’iy yo‘ldosh uchirish va birinchi milliy kosmonavtni tayyorlash bo‘yicha takliflar, ipakchilik sohasi, raqamli yo‘naligida texnikalar parkini yangilab, qashqari yechimlarni keng joriy etish va boshqa qator dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jordaniya Hoshimiyalar Podshohligi Senati Raisi Faysal Aqif Misqal al-Fayoz, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki prezidenti Szu Szyai boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Mamlakatimiz yetakchisi Buyuk Britaniyanning Markaziy Osiyo va Ozarbayjon bo‘yicha savdo vakili lord Jon Olderdays, iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha maslahatchi Suma Chakrabarti, Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchin bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Ko‘rib turganingizdek, eng qisqa oy bo‘lsa-da, fevral mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida zalvorli voqealarga boy palla sifatida tarixga kirdi. Mqolamiz avvalida Amir Temurning mamlakatimiz va dunyo tarixida tutgan o‘rni haqida so‘z ochgandik. So‘ngida esa Sohbiqiron o‘g‘itlaridan quydagi parchani keltirsak: “Har kimdan kengash oldim, har kimdan fikr o‘rgandim, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, uni ko‘ngil xazinasiida saqlab, ishlata bildim”. Bu iqtibos davlatimiz boshchiligidagi fevral oyi mobaynida mamlakatimizda kechgan siyosiy-ijtimoiy jarayon shiddati va mohiyatini yanada teranroq anglash va his qilishga yordam beradi.

Kun mavzusi

QORAQALPOGʻISTONNI
KOMPLEKS
RIVOJLANTIRISH:
YANGI BOSQICH VA USTUVOR
MAQSADLAR



Guljan XALMURATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Davlatimiz rahbari ishtirokida oʻtkazilgan yigʻilishda hududdagi islohotlar natijadorligi, imkoniyatlar va kelgusi vazifalar atroflicha muhokama qilindi. 2017-yildan boshlab Qoraqalpogʻiston taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqich boshlandi. Hududda sanoat, xizmat koʻrsatish, energetika, turizm va raqamli texnologiyalar sohaslarida yirik loyihalar amalga oshirildi. Yangi sanoat korxonalari, AT parklari, energetika quvvatlari ishga tushirilishi iqtisodiy oʻsishning muhim drayveriga aylandi.

Statistik koʻrsatkichlar bu jarayonning amaliy natijasini yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, sanoat mahsulotlari hajmi

Qoraqalpogʻistonning tabiiy resurslari va qazilma boyliklari uning strategik ahamiyatini yanada oshiradi. Sement, qurilish toshlari, gips, shisha va boshqa xomashyo zaxiralari yirik sanoat klasterlarini tashkil etish uchun mustahkam asos boʻlib xizmat qiladi. Yigʻilishda kelgusi besh yillik rivojlanish parametrlari ham belgilab olindi.

Jumladan, yalpi hududiy mahsulot hajmini 102 trillion soʻmdan oshirish, sanoat va xizmat koʻrsatish sohasida 7 milliard dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Shu bilan birga, eksport qiymatini 900 million dollarga yetkazish, ishsizlikni 4,2 foizgacha, kambagʻallikni esa 3,2 foizgacha kamaytirish vazifasi qoʻyildi. Ayrim shahar va tumanlarni ishsizlik va kambagʻallikdan xoli hududga aylantirishga qaratilgan manzilli choralar ishlab chiqildi.

Kelgusi yillarda hududga toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiya hajmini 2,5 barobar oshirish maqsad qilingani ham muhim ahamiyatga ega. Sunʼiy intellekt markazi, avtomobil butlovchi qismlar klasteri, bazalt tolasi ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash kabi loyihalar iqtisodiyotni diversifikatsiyalashga xizmat qiladi.

Yoshlar va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida AT universiteti, startap texnopark va intellektual markazlar tashkil etish rejalashtirilgan. Bu esa Qoraqalpogʻistonni innovatsion rivojlanish nuqtasiga aylantirishi kutilmoqda. Hududdagi yer resurslaridan toʻliq foydalanish, iqlimga



“**Келгуси йилларда ҳудудга тўғридан тўғри хорижий инвестиция ҳажмини 2,5 баробар ошириш мақсад қилингани ҳам муҳим аҳамиятга эга. Сунъий интеллект маркази, автомобиль бутловчи қисмлар кластери, базальт толаси ишлаб чиқариш, чиқиндиларни қайта ишлаш каби лойиҳалар иқтисодиётни диверсификациялашга хизмат қилади.**

2016-yilga nisbatan bir necha barobar oshdi, yalpi hududiy mahsulot esa 8,5 trillion soʻmdan 54,3 trillion soʻmga yetdi. Xizmatlar sohasida ham barqaror oʻsish kuzatilib, uning hajmi 35 trillion soʻmdan oshgan. Shu bilan birga, investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida joriy etilgan imtiyoz va preferensiyalar iqtisodiyotga paymirdi oqimini sezilarli darajada koʻrsatirdi. Natijada har yili koʻplab loyiha amalga oshirilib, minglab ish oʻrni yaratilgan. Faqat 2025-yilning oʻzida 177 mingdan ortiq kishining bandligi taʼminlanib, 83 ming fuqaro kambagʻallikdan chiqarildi.

Qoraqalpogʻiston uchun ekologik barqarorlik masalasi alohida ahamiyatga ega boʻlgan maʼlum. Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish maqsadida amalga oshirilayotgan loyihalar hududdagi ekologik vaziyatni bosqichma-bosqich yaxshi tomonga oʻzgartiryapti. Dengizning qurib qolgan hududida millionlab gektar yashil maydon barpo etilishi tabiatni tiklash bilan birga yangi iqtisodiy imkoniyatlar ham yaratmoqda.

Ijtimoiy sohada ham salmoqli natijalarga erishildi. Yangi taʼlim, tibbiyot va infratuzilma obyektlari barpo etilib, xizmat koʻrsatish sifati oshmoqda. Bu esa aholi turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Soʻnggi yillarda hudud iqtisodiyoti tarkibida ham sifat oʻzgarishlari kuzatildi. Ilgari eksport ulushi past boʻlgan, hozir esa bu koʻrsatkich 30 foiz atrofida. Umumiy eksport hajmi esa 2,1 milliard dollarga yetgani ham yaxshi koʻrsatkich.

mos yangi ekin turlarini koʻpaytirish va dorivor oʻsimliklar yetishtirish boʻyicha vazifalar belgilandi. Chorvachilik va yaylov xoʻjaligini rivojlantirish, ozuqa ishlab chiqarish va agrosanoat majmualarini tashkil etish ham muhim yoʻnalishlardir.

Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida Orolboʻyi va Ustyurt platosida glempling zonlari, “Borsa kelmas” tuz koni hududida turizm-rekreatsiya zonasi, Orol tarixi muzeyini modernizatsiya qilish kabi loyihalar amalga oshiriladi. Bu ishlar hisobiga hududga minglab xorijlik va mahalliy sayyohni jalb qilish rejalashtirilgan. Qoraqalpogʻistonning transport-logistika salohiyatini oshirish maqsadida Qoʻngʻirotda xalqaro standartlarga javob beradigan “quruq port” tashkil etish vazifasi qoʻyildi. Shuningdek, ichimlik suv taʼminoti, yoʻl qurilishi va kommunal infratuzilmani yaxshilashga katta mablagʻ yoʻnaltirilishi belgilandi.

Qoraqalpogʻistonni kompleks rivojlantirishga qaratilgan mazkur vazifalar hudud iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Belgilangan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilsa, hududning ulkan resurs va inson kapitali salohiyati toʻliq namoyon boʻladi. Eng muhimi, bu jarayon orqali aholi turmush darajasini yaxshilash, yangi ish oʻrinlari ochish va barqaror iqtisodiy oʻsish taʼminlanadi. Shu maʼnoda, Qoraqalpogʻistondagi islohotlar nafaqat hudud, balki butun mamlakat taraqqiyoti uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Kun mavzusi

AHOLI VA QISHLOQ
XOʻJALIGINI
ROʻYXATGA OLISH

Natijalar qachon eʼlon qilinadi?

Maʼlumotlarga koʻra, 1886-yili Toshkent shahrining mahalliy aholi yashaydigan qismida jami 8 turdagi 534 zavod-fabrika faoliyat yuritgan. Ushbu korxonalar Shayxontohur, Sezbor, Koʻkcha va Beshyogʻoch dahalarida joylashgan boʻlib, tarixiy faktda ularning ishlab chiqarish quvvati boʻyicha ham raqamlar koʻrsatilgan.



Odatda bu kabi statistik maʼlumotlar odamlar uchun qiziq boʻligina qolmay, muayyan davrga oid qaydlar, demografik va boshqa koʻrsatkichlarning umumiy manzarasini koʻrsatib beradigan asosiy omildir.

Statistik raqamlar aniq va shaffof boʻlishi kerak. Buning uchun qadimdan turli usullardan foydalanib kelingan, ammo ularning hammasi ham ishonchli manbalarni yaratma olmagan. Bu davrlar, turli siyosiy vaziyatlar, tarixiy noaniqliklar, sharoit

va imkoniyatlar kabi qator omillar bilan bogʻliq. Ammo bugun eng zamonaviy, raqamlashgan texnologiyalar asrida yashayapmiz. Demak, statistikani ham aniq maʼlumotlar asosida shakllantirish uchun imkoniyatlar yetarli. Keyingi yillarda yurtimizda bu nafaqat odamlarning statistik raqamlarga ishonchini oshirish, balki mamlakat taraqqiyoti, aholi farovonligini taʼminlashning muhim shartlaridan biriga aylandi.

Joriy yil boshida Oʻzbekiston tarixida ilk bor oʻtkazilgan aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish umummilliy tadbiri ham shu jihatdan yurtdoshlarimiz orasida katta qiziqish uygʻotdi. Davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan joriy yilning 15-yanvaridan 28-fevraliga qadar davom etgan mazkur tadbir bir yarim oy davomida mamlakatimiz hayotidagi tarixiy hamda muhim voqealik sifatida diqqatimiz markazida boʻldi. Yurtdoshlarimiz unda faol ishtirok etib, jarayonlarga kutilganidan koʻra yuqori qiziqish bildirgani, roʻyxatdan oʻtish talablariga jiddiy va masʼuliyat bilan yondashganiga guvoh boʻldik.

Aholi va qishloq xoʻjaligi ikki bosqichda — onlayn hamda tegishli xodimlar uyuma-uy yurgan holda roʻyxatga olindi. Avvaliga hamyurtlarimiz 15-31-yanvar kunlari census.stat.uz maxsus axborot tizimi orqali onlayn roʻyxatdan oʻtdi. Natijalarga koʻra, atigi 17 kunda mamlakatimizdagi jami xonadonlarning 82,3 foizida istiqomat qiluvchi 30 milliondan ortiq kishi onlayn roʻyxatdan oʻtgan va bu MDH davlatlari orasida oʻziga xos rekord koʻrsatkichdir.

Roʻyxatga olishning ikkinchi bosqichi esa 4-fevraldan 28-fevralga qadar anʼanaviy, yaʼni xonadonma-xonadon yurib maʼlumot oʻplash tarzida davom etdi. Bunda asosiy eʼtibor onlayn bosqichda ishtirok etmagan yoki qoʻshimcha

aniqlashtirish talab etilgan xonadonlarga qaratilgan. Roʻyxatga oluvchilar har bir xonadonga kirib, tegishli maʼlumotlarni maxsus planshetlar orqali yagona elektron tizimga kiritib bordi.

Ochigʻi, bir yarim oy davomida roʻyxatga olish tadbirlari xalqimiz eʼtibori markazida turdi. Qiziqish yuqori ekan oʻzaro muhokamalar, internet platformalari orqali



bildirilgan fikrlar, qator savollarda ham koʻzga tashlandi. Mazkur savollarga mutasaddilar ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa platformalarda muntazam javob berib bordi. Tadbirlarni oʻtkazishdagi ochiqlik va shaffoflik esa odamlarning jarayonlarga daxldorlik hissinu yanada oshirdi. Umuman, yurtimizda ilk bor bunday yirik formatda, jahon standartlari asosida oʻtkazilgan roʻyxatga olish tadbirlarini keng jamoatchilik, mahalliy va xorijlik mutaxassislar, xalqaro ommaviy axborot vositalari vakillari hamda ekspertlar faol kuzatib bordi.

Shu yil 28-fevral kuni aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish jarayoni rasman yakunlandi. Endi uning natijalari, keyingi jarayonlar ham koʻpchilikni qiziqitmogʻda.

— Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish umummilliy tadbirida jami 8,3 million xonadonda yashovchi aholi toʻliq qamrab olindi, — deydi Milliy statistika qoʻmitasi matbuot xizmati rahbari Usmon Abdurasulov. — Bu jarayonda qoʻshimcha turar joy obyektlari, jumladan, yangi qurilgan uy-joylar aniqlandi. Ammo ayrim holatlarda xonadon aʼzolarining vaqtincha xorijda boʻlishi yoki boshqa obyektiv sabablar tufayli uyda boʻlmagʻli natijasida kam sonli fuqarolar roʻyxatga olishda ishtirok eta olmagan boʻlishi mumkin. Ushbu fuqarolar aholini roʻyxatga olish boʻyicha tashkil etilgan koll-markazining 1851 qisqa raqamiga qoʻngʻiroq qilishi lozim. Qayta oʻrganishga masʼul statistika organi xodimlari ularning xonadoniga borib, roʻyxatga oladi. Bunday holatlar xalqaro amaliyotda ham uchraydi va umumiy natijalarning ishonchligiga taʼsir koʻrsatmaydi.

Aytish joizki, aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish Oʻzbekiston tarixida toʻliq raqamlashtirilgan, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan va qamrovi boʻyicha eng yirik tadbirlardan biri boʻldi. Jarayon toʻliq raqamli tizim asosida amalga oshirilib, inson omilini kamaytiruvchi avtomatik nazorat mexanizmlaridan foydalanildi.

Endi maʼlumotlarning aniqligi va sifatini baholash maqsadida roʻyxatga olish natijalari qayta oʻrganiladi. Bu xalqaro tavsiyalarda koʻrsatilgan boʻlib, mart oyi davomida tasodifiy tanlab olingan xonadonlarga mutaxassislar qayta boradi. Odatda bunday qayta tekshiruvlar umumiy qamrovning oʻrtacha 5-10 foizida boʻladi. Bizda ham 10 foizgacha qamrov asosida qayta oʻrganish rejalashtirilgan. Odamlar buni toʻgʻri tushunishi, xonadonlarga boradigan xodimlar qayta beradigan qisqa savollarga javob berishlarini soʻraymiz. Chunki roʻyxatga olish jarayoni nihoyatda jiddiy boʻlib, undagi har bir maʼlumot aniq hamda toʻgʻri boʻlishiga eʼtibor

Gap shundaki, tanishimning avval onlayn roʻyxatdan oʻtgan ishini osonlashtirgan. Chunki maʼlumotlarni boshidan kiritgandan koʻra, xatolarning oʻziginaga tuzatish xodimga ham oson kechgan. Qolaversa, uning roʻyxatdan oʻtishi butun oilasi uchun yetarli boʻlib, xonadonning boshqa aʼzolari bezovta qilinmadi. Boisi, ular haqidagi maʼlumotlar ham bir shaxs orqali parallel tarzda kiritilgan.

Yaʼni roʻyxatga olish jarayoni birdan anʼanaviy tarzda emas, avval onlayn amalga oshirilgani shu jihatdan qulaylik boʻlgan. Qolaversa, jarayon odamlar uchun qiyinchilik tugʻdirmadi, xodimlarning oʻzi xonadonlarga borib, roʻyxatga oldi. Bunga koʻp vaqt ham kerak boʻlmadi. Ammo birgina ana shu harakat orqali yurtimiz hayotidagi katta va muhim jarayonda ishtirok etib, eng toʻgʻri statistik maʼlumotlar toʻplanishiga hissa qoʻshayotganimizni his qilamiz. Axir, roʻyxatga olish bu — amalda mamlakat hududida yashab turgan aholini toʻgʻridan toʻgʻri hisobga olish boʻlib, demografik hisob-kitoblarni aniqlashtirishga xizmat qiladi va kelgusi yillar uchun ishonchli statistik bazani yaratadi.

Toʻgʻri, shu vaqtga qadar ham mamlakatimizda aholi soni statistikasi eʼlon qilib borilgan, ammo u eskicha usullarda hisoblangan. Demak, hozirgi roʻyxatga olish natijasida bu raqamlar oʻzgarishi va avvalgi rasmiy maʼlumotlardan farq qilishi ham mumkin.

— Mustaqillik yillarida aholi soni toʻliq roʻyxatga olish orqali emas, balki demografik hisob-kitob usuli asosida aniqlab kelingan, — deydi Milliy statistika qoʻmitasi boshqarmaga boshligʻi Zoyir Yoʻldoshev. — Bunda asos sifatida 1989-yilgi soʻnggi roʻyxatga olish natijalarida aniqlangan 19,7 million fuqaro soni qabul qilingan. Keyingi yillarda 1989-yili qayd etilgan 19,7 million kishi soni demografik balans usuli asosida yangilab borilgan. Yaʼni har yili tugʻilganlar soni qoʻshilgan, vafot etganlar soni ayirilgan, xorijdan doimiy yashash uchun koʻchib kelganlar qoʻshilgan hamda mamlakatdan doimiy yashash uchun chiqib ketganlar soni ayirib borilgan. Shu tartibda aholining joriy soni har yili yangilab kelingan va 2026-yil 1-yanvar holatiga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 38 million 236 ming 704 kishini tashkil etgan.

Roʻyxatga olish natijasida aholi yoki chorva soni rasmiy joriy maʼlumotlardan muayyan darajada farq qilishi mumkin. Bu — tabiiy holat. Chunki shu vaqtgacha aholi soni demografik hisob-kitoblar asosida, chorva soni asosan hisobot topshirish orqali shakllantirilgan. Roʻyxatga olish esa amaldagi holatni manzilga chiqib, bevosita hisobga olish jarayoni boʻlib, avvalgi baholashlar bilan real natijalar oʻrtasida farq kuzatilishi ehtimoli mavjud. Bu faqat Oʻzbekistonga xos emas, xorij tajribasida ham roʻyxatga olishdan keyin ayrim hududlarda aholi soni kutilgandan kam yoki koʻp chiqqan holatlar uchraydi. Ammo roʻyxatga olishdan maqsad raqamni oʻzgartirish emas, balki uni aniqlashtirishdir.

Dastlabki statistika iyulga qadar chiqariladi

Shunday qilib, uzoq tayyorgarlik koʻrilgan va yurtdoshlarimiz katta qiziqish bilan kutib olgan aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish tadbiri faollik bilan oʻtkazildi va fevral soʻngida rasman yakunlandi. Odamlar esa olingan statistik maʼlumotlar birdan eʼlon qilinishini kuta boshladi. Ammo mutasaddilar qayta oʻrganishi, barcha maʼlumotlar yigʻilgandan keyin ularni qayta ishlash, tekshirish va tahlil qilish muayyan muddat talab etishini bildirdi. Maʼlumotlarga koʻra, ayrim xorijiy davlatlar tajribasida roʻyxatga olish natijalari 2-3 yil mobaynida qayta ishlanib, shundan keyin bosqichma-bosqich eʼlon qilingan. Biroq bizda bu jarayon uzoqqa choʻzilmasligi aytilmoqda.

— Bizda maʼlumotlarni kiritish jarayonining oʻzidayoq mantiqiy nazorat mexanizmi joriy etilgani, yaʼni real vaqt rejimida ogohlantirishlar orqali xato va kamchiliklar darhol tuzatib borilayotgani maʼlumotlarni qayta ishlashni sezilarli darajada tezlashtiradi, — deydi Usmon Abdurasulov. — Hozir onlayn va uyma-uy yurib yigʻilgan maʼlumotlar yagona bazada jamlanmoqda, texnik va mantiqiy tekshiruvdan oʻtkazilyapti. Shuningdek, nomuvofiqlik holatlari boʻyicha qoʻshimcha tahlillar amalga oshirilmoqda. Dastlabki natijalar joriy yilning 1-iyuliga qadar, yakuniy va toʻliq tahlil qilingan rasmiy maʼlumotlar esa 2027-yil 1-iyulga qadar eʼlon qilinishi rejalashtirilgan. Bu raqamlar shunchaki yigʻilgan maʼlumot emas, balki bir necha bosqichli tekshiruvdan oʻtgan, aniqlashtirilgan va rasmiy tasdiqlangan ishonchli natijalar boʻladi.

Yaʼni har birimiz haqimizdagi maʼlumotlar asosida mamlakatimizning umumiy statistikasi shakllantiriladi. Bu qanchalik katta baza ekan, undagi har bir raqam muhimligini tasavvur qilish qiyin emas. Boshqa jihatdan, bu maʼlumotlarni xavfsiz saqlash ham jiddiy masala ekanini yaxshi tushunamiz. Mutasaddilarning izlashishicha, fuqarolar taqdim etgan barcha maʼlumot amaldagi qonunchilikka muvofiq himoya qilinadi. Shaxsiy maʼlumotlar maxfiy saqlanib, faqat umumlashtirilgan statistik koʻrinishda ishlatiladi. Ularni saqlashda ham barcha choralar koʻrilgan. Axborot tizimi yuqori ishonchli va zaxiralangan maʼlumotlarni qayta ishlash markazida joylashtirilgan boʻlib, milliy sertifikatga ega kriptomodul orqali maʼlumotlar shifrlangan holda saqlanadi. Statistik qayta ishlashdan oldin maʼlumotlar shaxssizlantirilishi, yaʼni umumlashtirilgan koʻrinishga keltirilib, muayyan fuqaroni aniqlash imkoniyati toʻliq cheklanishi aytilmoqda.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Ilm sarhadlarida

Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlar yaxshi biladi: ilm-fan faqat bilim va mehnat emas, sabr, matonat, muvozanat hamda qat’iyat talab etadigan yo‘ldir. Orzu va ishonch bilan bosib o‘tiladigan bu yo‘ldagi har bir yutuq ortida mehnat va fidoyilik mujassam. Yana bu yo‘lda ayol kishidan ilm va oila o‘rtasida muvozanatni saqlash uchun katta matonat talab etiladi. Ana shu sinovlardan chekinmay, olg‘a intilayotgan opa-singillarimiz bugun ilm-fan taraqqiyotining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Albatta, bu jarayonda davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar katta ahamiyatga ega.

JAMIYAT ZIYNATI

BUGUN XOTIN-QIZLAR

YURT TARAQQIYOTIDA O‘Z O‘RNIGA EGA



Global raqobat kuchayishi sharoitida turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimiz hududidagi sayyohlik resurslari salohiyatidan samarali foydalangan holda turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish orqali mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shish mumkin.



Dilbar ASLANOVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori

Bunda mahalliy va xorijlik nogironligi bor insonlarning inklyuziv turizmdagi ehtiyojini qondirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Bu borada innovatsion va raqamli texnologiyalardan samarali foydalangan holda inklyuziv turizmni tashkil etishning metodik asoslarini ishlab chiqish mazkur masalaning zamonaviy yechimidir. Loyihamiz shu maqsadga yo‘naltirilgan. Xususan, Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota va Qiziltepa tumanlarida inklyuziv turizmni rivojlantirish uchun interaktiv turpaketlar va surdodlarni tayyorlash modullarini yaratish ko‘zda tutilyapti.

Hududlarda inklyuziv turizmni tashkil etishning uslubiy asoslari, nogironligi bo‘lgan shaxslar va oila a‘zolari, shuningdek, yoshi ulug‘ insonlarning turizmga ehtiyoji va xohishi o‘rganiladi. Tahlillar asosida inklyuziv turizm yo‘nalishlari va turpaketlari ishlab chiqiladi.

Shuningdek, loyiha Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota va Qiziltepa tumanlaridagi barcha turistik resurslar va obyektlarning aniq

tarixiy manbalarga asoslangan kontenti, “turizm hamma uchun” internet sayitini yaratish hamda unga sayyohlik obyektlari bo‘yicha foto, matn (o‘zbek, rus, ingliz tillarida), audio ma‘lumotlarni joylashtirishni qamrab oladi.

“To‘siqsiz muhit” yaratish va nogironlar uchun qulay infratuzilmani ta‘minlash bo‘yicha texnik talab hamda standartlar ishlab chiqiladi. “Gapiruvchi shahar” loyihasida muzeylar va tarixiy-me‘moriy obidalar hududida joylashtirilishi mo‘ljallangan elektron matnlar va ovozi ilovalar ishlab chiqiladi.

2026-2027-yillarda amalga oshirilish kutilayotgan loyihamiz yaqinda yuqori baholalanib, grant mablag‘i taqdim etildi. Bu mamlakatimizda ilm-fanga, xususan, xotin-qizlarning ilmiy izlanishlariga berilayotgan e‘tibor va qo‘llab-quvvatlovga yorqin misoldir.

Bugun jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ta‘lim-tarbiya tizimini isloh qilish, ayniqsa, uning ilk va eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yosh davri bola shaxsining jismoniy, intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu tizimda barcha bolalar, jumladan, alohida ta‘lim ehtiyojmandlar uchun teng bilim imkoniyatini yaratish dolzarb masala.



Surayyo RAHIMOVA,
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti kafedra mudiri

“Maktabgacha ta‘limda inklyuziv muhit yaratish: alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta‘limiga jalb qilinishi” nomli amaliy loyihada maktabgacha ta‘limga alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni jalb qilish va inklyuziv muhitni yaratishning xalqaro ilmiy-amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsad qilingan.

Loyihada xalqaro tajribaga tayanilgan. U alohida ta‘limga ehtiyoji bor bolalarning sog‘lom tengdoshlari qatori faol bo‘lishi, mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, ushbu konsepsiyani milliy shartlarda tatbiq etish orqali pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish, maktabgacha ta‘limga inklyuziv ta‘limni integratsiya qilish orqali alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilish jarayonlarini mustahkamlashga qaratilgan yangi yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, loyiha xalqaro tadqiqotlar, tarbiyachi-pedagoglarning malaka oshirish treninglari va pedagogik resurslarni yangilash orqali milliy va xalqaro ta‘lim standartlariga moslashishga katta hissa qo‘shadi. Yaqinda poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo olimlari ayollari xalqaro forumida ushbu loyihamiz yuksak baholanib, munosib taqdirlandik. Bu jamoamiz uchun unutilmas, shukhli va shukronaga to‘la kun bo‘ldi.

Hozir “Tuproqdagi gumus miqdorini boshqarish uchun zoogumus va nanoo‘g‘itlar qo‘llash orqali tuproq unumdorligini oshirish texnologiyasini ishlab chiqish” loyihasi ustida ishlayapmiz. Loyihada tuproq unumdorligini oshirish, yer resurslaridan samarali foydalanish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini ko‘paytirish nazarda tutilgan.



Nafisa YAHYOIEVA,
Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Uning doirasida agroteknik tadbirlar ishlab chiqilib, organik mahsulotlar, ya‘ni zoogumus va nanoo‘g‘itni qo‘llab, tuproq unumdorligi va g‘o‘za hosildorligi oshiriladi.

O‘zbekistonda g‘o‘za hosildorligiga ta‘sir etadigan asosiy omillardan biri — tuproq unumdorligi. Ammo yillar davomida ball boniteti pasayib ketdi. Shu bois, endi tuproq unumdorligini kimyoviy moddalar emas, organik o‘g‘itlar yordamida oshirish talab etiladi. Tuproqda gumus hosil bo‘lish jarayonini tezlashtirishning birinchi sharti uni organik moddalar bilan boyitishdir. Zoogumus qo‘llanganda tuproq donador bo‘ladi, agrofizikaviy va agrokimyoviy xususiyati yaxshilanadi, o‘simlik kasalliklari va tuproq zichligi kamayadi, ekinlar hosili 15-20 foiz oshadi.

Yurtimizda tuproq unumdorligi pasayishi kuzatilmoqda. Gumus miqdori so‘nggi 50 yilda qariyb 2 baravar kamaygan. Aksariyat fermerlar organik o‘g‘itlar qo‘llamaydi. Ayrim xo‘jaliklar qoramol go‘ngini ishlatadi, xolos. Bargaon oziqlantirishda ham muammo kuzatilmoqda. Dehqonlar orasida zoogumus va nanoo‘g‘itlar haqida ma‘lumot ko‘p emas. “Zoogumus” ko‘p miqdordagi mikroelement, ferment, vitamin va tuproq antitibiotiklari o‘simliklar uchun maksimal darajada mavjud bo‘lgan tabiiy organik o‘g‘it. Undan foydalanganda so‘ng tuproqdagi samardorlik 5 yildan ortiq vaqt davom etadi. Nanoo‘g‘it nanotexnologiya yordamida yaratilgan, nanomaterial ichiga o‘ralgan yoki qoplangan (kapsulalangan), tarkibi oziq moddalarga boy, tuproqda uzoq muddat saqlanuvchanligini yo‘qotmaydigan o‘g‘itlardir.

Yaqinda shu loyihamiz nufuzli tadbirda yuqori baholandi va loyihani amalga oshirish uchun 2 milliard so‘m ajratildi.

Ayni paytda “Insekt allergiyasini tashxislash va davolashni amaliyotga tatbiq etish” loyihasi ustida ishlayapmiz. Bunda insekt allergiyasini noinvaziv va samarali tashxislash uchun yangi diagnostik usul — AllerGenChip plasterlari ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi. Immunitet holati haqida ma‘lumot beruvchi moddalarni aniqlash orqali balalarda allergik xavf pasportini yaratish hamda yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida AllerGenMapUzbekistan mobil ilovasi yaratiladi.



Shahnoza MUHAMEDOVA,
Buxoro davlat tibbiyot instituti kafedra mudiri, dotsent

Ushbu loyiha bolalar orasida insekt allergiya va asoratlari avj olib borayotgani va bu holat og‘riq, nafas yo‘li shishishi, nafas olish qiyinlashishi, anafilaktik reaksiyalarga olib kelishi hamda o‘lim bilan yukanilishi mumkin.

Insekt allergiyasining texnologik ahamiyati ushbu kasallikni aniqlash, davolash va oldini olish uchun yangi innovatsion usullarni yaratishga bog‘liq. Birinchi navbatda, allergiyani tez va aniq diagnostika qilish uchun biomarkerlar va

allergenlarni aniqlovchi maxsus laboratoriya texnologiyalari rivojlanmoqda. Masalan, molekulyar allergologiya usullari yordamida hasharot zahridagi alohida allergen proteinlar aniqlanib, individual profilaktika terapiyasini ishlab chiqish imkoni yaratiladi.

Texnologik rivojlanish insekt allergiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtiradi, jumladan, hasharotlarni nazorat qilish va insonga ta‘sirini minimallashtiradi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sirarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, telemeditsina va raqamli sog‘liqni saqlash texnologiyalari allergiya bilan og‘rigan bemorlarni kuzatish va muolajani samarali tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqotning ta‘limiy qismini amalga oshirish maqsadida Buxoro davlat tibbiyot instituti va hududiy tibbiyot markazlari bazasida “Allergiyasiz hayot” maktabini tashkil etish rejalashtirilgan. Yaqinda shu loyihamiz nufuzli tadbirda yuqori baholandi va uni amalga oshirish uchun 3 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA tayyorladi.

Barcha zamonlarda ayollar avlodlar ildizi, sabr va matonatning buyuk timsoli, jamiyat vijdoni sifatida tarannum etilgan. Ayol har bir oila va jamiyat to‘kisligini ta‘minlovchi muqaddas kuch. Shu bilan birga, ayolning roli nafaqat oilada, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida ham namoyon bo‘ladi.

Bir paytlar qishloq ayolining mavqei “kolxoz ishchisi” degan yorliq bilan belgilab qo‘yilgan edi. O‘sha yillarda qishloq ayolini hamma yo‘llar bir nuqtaga — paxta dalasiga olib borardi. Davlat siyosatida “paxta qadri” birinchi o‘rinda turgani sababli ayolning reqasi uning ichki salohiyati bilan emas, kunlik “norma”ni bajarishi bilan baholanardi. Ura-urachilikka asoslangan targ‘ibotlar ham asosan ayollarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, ishlab chiqarish ilg‘orlarini namuna qilishga yo‘naltirilgan edi. Shu tariqa qishloq ayollarining umri, orzulari paxtaxtazordagi “oq qamal” girdobida so‘nib ketardi. Albatta, bu voqeilikni bugun to‘kis sharoitlarda kamol topayotgan, zamonaviy ta‘lim olib, farovonlikda o‘sayotgan avlod bilmas, lekin paxta dalasida atak-chechak qilib, egatlarda ulg‘aygan avlod vakillari yaxshi biladi.

Avvallari ko‘p joylarda bolalar maskanlari, maktabgacha ta‘lim dargohlari yetishmas, shu sabab ko‘pchilik bolalar ushbu tizimdan bebahra qolar, bu esa ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltirar edi. Bu holat bolalar, ayollar taqdirida ham og‘ir muammolardan biri sanalardi. Davlat tomonidan tarbiya muassasalariga e‘tibor qaratilmagani sababli bola parvarishi va ta‘lim-tarbiyaning butun mas‘uliyati faqat onaning yelkasiga yuklanardi. Bu esa uning ishlash, o‘qish imkonini, shaxsiy rivojlanish orzularini cheklar edi. Ammo keyingi yillarda ona va bola taqdiriga soya solgan bu muammo o‘z yechimini topa boshladi. Davlat siyosatida ta‘lim-tarbiya



Ayol borki, olam munavvar

UMIDDAN YUKSALGAN BUYUK QUDRAT



sohasiga alohida ustuvorlik berildi. Hatto eng chekka qishloqlarda ham bolalar bog‘chalari barpo etildi, zarur infratuzilmalar bosqichma-bosqich shakllantirildi. Bu o‘zgarishlar tufayli qishloq ayolining zimmisidan og‘ir yuk kamayib, mehnat qilish, bilim olish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkoniyati kengiyadi.

2017-yildan boshlab vaziyat keskin o‘zgardi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ta‘limning ilk bosqichini rivojlantirishning ko‘plab yo‘nalishlari belgilab olindi. Xususan, maktabgacha ta‘lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi. Ushbu islohotlar natijasida mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi.

Undan tashqari, avvallari onalar zimmasida bo‘lgan — maktabga qadam qo‘yadigan bolalarga ilk qog‘oz-qalam tutishni o‘rgatish vazifasi maktabgacha ta‘lim tizimi tasarrufiga o‘tib, hozirgi kunda olti yoshli bolalar ham maktabga tayyorlov guruhlariga qamrab olinmoqda. Shu bilan birga, 2017-yilga qadar ta‘lim sohasida ayollar uchun qulay va inklyuziv muhit shakllanmagan, qo‘shimcha qulayliklar, masofaviy o‘qish imkoniyatlari, bolali ayollar uchun maxsus ta‘lim shakllari yo‘qligi, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda o‘qish istagida bo‘lgan ko‘plab ayollarning oliy ma‘lumot olish imkonini qiyinlashtirar edi. Bu borada qulay ta‘lim turlari joriy qilinishi ayollar uchun vaqt va jismoniy maqbul sharoitni yuzaga keltirib, ularga “yo oila, yo ta‘lim” degan ikki karrali

tanlov o‘rniga “ham oila, ham ta‘lim”ni tanlash imkoniyatini berdi.

Keyingi yillarda xotin-qizlarning ta‘lim olishi uchun foizsiz ta‘lim kreditlari taqdim etilishi, ehtiyojmand qizlarga grantlar ajratilishi, xotin-qizlarning magistraturadagi ta‘limiga to‘lov davlat tomonidan qoplab berilishi kabi imtiyozlar ularning oliy ta‘limdagi qamrovi keskin oshishiga sabab bo‘ldi. Shu yo‘sinda oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qiz talabalarning salmog‘i oshib bormoqda. 2025/2026-o‘quv yilida jami 255

ming 402 xotin-qiz oliy ta‘limga talabalikka qabul qilindi. Bundan tashqari, 187 ming xotin-qiz “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘qitildi. Bu esa kelajakda ilmi, intiluvchan va faol ayollar soni ortishiga, ular orqali esa butun jamiyatning barqaror va barkamol taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Har bir ayol, avvalo, ona. Unga singgan bilim, ma‘naviy tarbiya kelgusida farzandlariga, farzandi orqali esa jamiyatga “yuqadi”. Demak, onalar butun millatni tarbiya qiladi. Bugun

ilm-fan, tibbiyot, ta‘lim, san‘at va boshqa jabhalardagi yuksak yutuqlar ko‘pincha ayollar ishtiroki bilan bog‘liq.

Jomboylik Gulira‘no Erkinova paxta dalasida umrini o‘tkazgan buvisining orzu va armonlarini amalga oshirishni, oliy ta‘lim olib, pedagog bo‘lishni orzu qilardi. U 19 yoshida tumshur qirdi, tez orada farzandi bo‘ldi. Hayot u uchun asta-sekin, faqat uy-ro‘zg‘or doirasida davom eta boshladi.

— Buvim umrini kolxozda ishchi bo‘lib o‘tkazgan. U menga doim oliy ma‘lumotli bo‘lishim kerakligini, o‘zi bu imkoniyatdan foydalana olmaganini afsus bilan aytardi. Oliy ta‘limda sirtqi ta‘lim ochilganidan foydalanib, hujjat topshirdim. O‘qib, buvisining orzularini ro‘yobga chiqardim. Buvimning doimiy o‘g‘itlari, shuningdek, yaratilgan imkoniyatlar bizni orzular sari yetaklamoqda, — deydi Gulira‘no Erkinova.

Albatta, paxtaxtazoda umri kechgan katta avlodning armonlarini ushlatirayotgan Gulira‘no kabi bugungi avlod vakillari oramizda juda ko‘p. Ular “osmondan tushgan” emas. Davlatimiz tomonidan yaratilgan sharoitlar tufayli transformatsiya yo‘lini bosib o‘tib kamol topgan, haqiqiy qahramonlar. Ayolning “uy bekalligidan” rahbarlik lavozimigacha bo‘lgan evolyutsiyasi ham tasodif emas, balki milliy rivojlanish strategiyasining amaliy natijasidir.

Bugun “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish,

ayollarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha ishlar ko‘lami keng. Bu jarayonni institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadida huquqiy baza yaratildi. So‘nggi yillarda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 100 ga yaqin me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bu hujjatlar faqat qog‘ozda emas, balki hayotda real ijrosini topmoqda. Moliyaviy yordam, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar, kasb-hunar o‘rgatish markazlari orqali ko‘rsatilayotgan amaliy ko‘maklar ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishda muhim omilga aylandi. Natijada xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning samarali va o‘ziga xos modeli shakllandi. Bu model tizimli yondashuv, qat’iy siyosiy iroda va amaliyotda o‘z tasdig‘ini topayotgan natijalar uyg‘unligidir.

Albatta, avvallari bunday imkoniyatlar bo‘lmagani sabab “ugun o‘tiradigan” ayollar soni oshib ketgan edi. Bugun imkoniyatlar va islohotlar sabab ijtimoiy mentalitet o‘zgardi. Iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlikka keng jalb etish va o‘z ishini boshlashiga amaliy ko‘mak berish xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligiga va shaxsiy hayotiga, shu orqali butun oila hamda jamiyat farovonligiga bevosita ta‘sir qiladi.

Har bir islohotning haqiqiy qiymati hayotiy misollarda, insonlar taqdirida, qolaversa, tarix ko‘zgusida o‘z aksini topadi. Kechagi kunlar tarix sahanasiga aylanib, bugun inson qadri ulug‘lanayotgan bu yurtda ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar, tashkil etilayotgan infratuzilmalar, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari nafaqat ularning mehnat bozoridaagi faolligini oshirmoqda, balki shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi teng huquqli ishtirokini ta‘minlovchi mustahkam ijtimoiy ko‘prikkga aylanmoqda.

Bu — uzoq kutilgan ijtimoiy reforma, bu — butun jamiyatga sodir bo‘layotgan yuksalish, uyg‘onish, haqiqiy rivojlanishning jonli timsoli.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

6

MEZON

2026-yil 4-mart, 43-son

Faxr

CHAROG‘ON O‘ZBEKISTONIM

Jahon maydoniga chiqdi shara­f-shon O‘zbekistonim, Humo boshim aro uchdi, nurafshon O‘zbekistonim.

Tikib ko‘klarda bayrog‘im, quvonchdan quvnagan chog‘im, Dilimda ishq-u chanqog‘im, guliston O‘zbekistonim.

Buyuk sohibqironimsan, mening turk-u Turonimsan, Suyanchim, navqironimsan, qadrdon O‘zbekistonim.

O‘zing beksan, o‘zing xonsan, asl tinchlikka qo‘rg‘onsan, Milsiz bog‘u bo‘stonsan, Zarafshon O‘zbekistonim.

Hamal gul sochdi poyimga, Quyosh aylandi Oyimga, Shukur qildim Xudoyimga, farovon O‘zbekistonim.

Hayot darvozasin ko‘zlab, yugursam to‘pni ko‘z-ko‘zlab, Raqiblar qoldilar bo‘zlab, nigohbon O‘zbekistonim.

Bo‘lib Axtamquli shaydo, quyoshing dilga etdim jo, Jahonda tengi yo‘q ma‘vo, charog‘on O‘zbekistonim.

AXTAMQULI

Ma’naviy genofond himoyasi

Globallashuv shiddati va axborot texnologiyalari insoniyatga beqiyos imkoniyatlar taqdim etish bilan birga kutilmagan ma’naviy xatarlarni ham yetaklab kelmoqda. Insoniyat o‘z qo‘li bilan yaratgan texnologik vositalarning salbiy ta’siridan xavotirga tushayotgan hozirgi davrda milliy o‘zlikni va ajdodlar merosini asrash shunchaki o‘tmishga ehtirom emas, balki millat sifatida yashab qolishning bosh shartiga aylandi. Mazkur jarayonning asosiy mezonini bo‘lgan ma’naviy genofond esa millat tili, tarixi va e’tiqodini birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Biologik genofond insonning jismoniy sog‘lomligini ta’minlasa, ma’naviy genofond uning shaxs sifatidagi qiyofasi va millatning dunyo xaritasidagi o‘rmini belgilaydi. Ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, tarbiya — yo hayot, yo mamot masalasidir. Ushbu qimmatli o‘git XXI asrning raqamli olamida yangicha mazmun kasb etib, jamiyat oldiga axborot oqimi filtrsiz kirib kelayotgan bir sharoitda, yosh avlodda mafkuraviy immunitetni qanday shakllantirish lozim degan strategik savolni qo‘ymoqda.

Bu savolga javob izlashda, eng avvalo, ijtimoiy tarmoqlar girdobiga tushgan bola shuurining himoyasizligiga ilmiy nuqtayi nazardan e’tibor qaratish lozim. Zamonaviy tadqiqotlar o‘smirlarning bir kecha-kunduzda o‘rtacha 5 soatdan 9 soatgacha vaqtini virtual olamda o‘tkazishini va bu jarayonda ularning ongiga 200 dan ortiq mafkuraviy xuruj ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlamoqda. Achinarlisi, ota-onalarning atigi 15 foizi farzandni internetda aynan nima bilan band ekanini to‘liq anglaydi. Nazaratsiz virtual muloqot ta’sirida o‘smirlarda hayotdan qoniqmaslik va ruhiy tushkunlik hissingin 35 foiz oshishi esa jamiyat uchun jiddiy signal.

Shuningdek, virtual tahdidlarga qarshi eng samarali qalqon — oiladagi raqamli gigiyena va jonli muloqot uyg‘unligi. Bu borada raqamli gigiyena shunchaki taqiq emas, balki axborotni saralash madaniyati bo‘lib, u kuniga atigi 15 daqiqalik samimiy suhbat orqali ham mustahkamlanishi mumkin. Ilmiy xulosalarga ko‘ra, ota-ona bilan yurakdan qilingan mana shu qisqa muloqot bolaning yot g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy chidamliligini 40 foiz oshiradi. Jaloliddin Rumiy hazratlari aytganidek, “Qalb ozuqasi boshqa, tana ozuqasi boshqa”. Farzandning jismoniy ehtiyojlarini qondirish tana ozuqasi bo‘lsa, uning qalбини ilm, odob va mehr bilan to‘ldirish ruhiy-ma’naviy ozuqadir.

Shu bois, yangi O‘zbekistondagi islohotlar markazida turgan “Inson qadri uchun” tamoyili, avvalo, oiladan boshlanishi,



“oila — maktab — jamiyat” zanjiri esa mustahkam birlikka aylanishi shart. Bugungi oliy vazifamiz yoshlarni nafaqat texnologiyani egallagan mutaxassis, balki ma’naviy genofondimizni asrovchi, o‘z ildizlariga sodiq va ichki qalqoni mustahkam komil insonlar qilib voyaga yetkazishdan iborat.

Milliy immunitet poydevori

Ma’naviy genofondni asrashda Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi o‘lmas o‘g‘itlar fundamental ahamiyatga ega. Mutafakkir qarashlariga ko‘ra, komil inson tarbiyasida oila va maktab mushtarakligi millat uchun eng mustahkam mafkuraviy qalqondir. Farzand kamoloti o‘z-o‘zidan shakllanadigan jarayon emas. Shu bois, uni

Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, tarbiya uch asos — badan, fikr va axloq muvozanatiga tayanishi lozim.

Mulohaza

faqat ta’lim muassasalari zimmasiga yuklash kutilgan natijani bermaydi. Bu maqsad yo‘lida butun bir jamiyatning birdamligi va ma’naviy mas’uliyati talab etiladi.

Tarixiy vorislik zanjiriga nazar tashlasak, milliy tarbiya modelining yuksak namunalarini ko‘ramiz. Xususan, Imom Buxoriy volidasi farzandining kamoloti uchun nafaqat moddiy imkoniyatlarini safarbar etgan, balki uning har bir sabog‘ini onalik mehri va yuksak ziyraklik bilan kuzatib borgan. Sohibqiron Amir Temur shaxsiyatida ham oilaviy muhit hal qiluvchi omil bo‘lgan. Amir Tarag‘ay o‘g‘lini yoshligidan ilm majlislariga olib borib, unda teran fikr va yuksak ma’naviyatni shaxsan shakllantirgan.



Sabohat JUMANIYOZOVA, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi yetakchi mutaxassisi

Hozirgi “alfa” avlod uchun eng katta xavf — aynan ma’naviy bo’shliq. Neyrobiologlar ushbu holatni ikki gormon misolida asoslab beradi. Jonli muloqot natijasida ishlab chiqariladigan oksitotsin — ishonch gormoni insonda xavfsizlik hissini shakllantiradi. Virtual o‘yinlar ta’siridagi dofamin — vaqtinchalik lazzat gormoni esa qaramlik va befarqlikni keltirib chiqaradi. Statistika ko‘ra, oilada mehr yetishmovchiligini his qilgan bolalarning virtual olam asiriga aylanish ehtimoli to‘rt barobar yuqori bo‘ladi.

Binobarin, haqiqiy ma’naviy genofond himoyachisi farzandiga vaqtinchalik moddiy lazzat emas, balki gadjetlar bera olmaydigan

Bugungi yuksak texnologiyalar asri yoshlardan nafaqat intellektual salohiyat, balki mustahkam ma’naviy poydevorni ham talab etmoqda. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, tarbiya uch asos — badan, fikr va axloq muvozanatiga tayanishi lozim. Bu tamoyil zamonaviy pedagogikaning “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” konsepsiyasi bilan to‘liq hamohangdir. Zero, odob bilan bezatilgan intellekt, ruhiy tarbiyadan mahrum quruq bilim insonning o‘zligini anglashiga xizmat qilolmaydi. Aslida, haqiqiy ma’rifat shunchaki formulalar to‘plami emas, balki qalbning ezgulik nuri bilan yo‘g‘rilishidir.

TARBIYADAN TEJALGAN VAQT – BOY BERILGAN KELAJAK

bo‘ladi. Demak, tarixiy tajribamiz bugunning eng qudratli himoyachisidir.

Milliy an’analirimizda tarbiyaning ikkinchi darajali jihatlari bo‘lmagan. Farzandning mutolaasi va har bir qadami doimiy diqqat markazida turgan. Virtual chegaralar buzilgan bugungi davrda ushbu qadriyatni tiklash millatning ma’naviy yuksakligi va jamiyat barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Haqiqiy ota-ona fazilati

Insoniyat tarixi va sharqona qadriyatlar oilaning haqiqiy qudrati uning iqtisodiy holati bilan emas, balki avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorislik ko‘lami bilan o‘lchanishini ko‘rsatadi. Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy ta’limotining tamal toshi — “syao” (farzandlik ehtiromi) tamoyili aynan shu munosabatlarni tartibga soladi. Mutafakkir ta’kidlaganidek, agar ota-onaning mas’uliyati faqat moddiy ta’minot bilan cheklansa, farzand ongida ota-ona shaxsi shunchaki “iqtisodiy resurs” sifatida muhrlanadi. Bu esa vaqt o‘tishi bilan insoniy munosabatlarning ma’naviy ildizidan uzilishiga va oilaviy mehr o‘rmini manfaat ustuvorligi egallashiga olib keladi.

Haqiqiy boy ota-ona farzandiga moddiy meros emas, balki yuksak ma’naviy olamni in’om eta olgan insondir. Biroq bugun ko‘pchilik ota-onalar farzandiga “kitob o‘qi”, deb, o‘zi ijtimoiy tarmoqlar girdobidan chiqa olmayotir. Pedagogikaning oltin qoidasi shundaki, bola so‘zingizni emas, harakatingizni takrorlaydi. Binobarin, bolaning qo‘liga bemaqsad telefon tutqazish shaxsiyatining fikrlash qobiliyatini cheklab, virtual yo‘qlik asiriga aylantirish demakdir.

jonli mehr va yuksak insoniy fazilatlarini taqdim etadi. Zero, ota-onaning shaxsiy

Maktab dargohidagi tarbiya jarayoni ota-ona va pedagogning maqsadlari mushtarak




namunasi har qanday virtual jozibadan kuchliroq.

Fikr va axloq muvozanati

Xalqimizda “Ustoz otangdek ulug‘” degan naql bejiz aytilmagan. Zero, maktab shunchaki bilim maskani emas, balki farzand shaxsiyati ijtimoiy muhit bilan ilk bor yuzmayuz keladigan katta hayot maydonidir. Ijtimoiy psixologiyadagi empatik muhit nazariyasiga ko‘ra, oila va maktab o‘rtasidagi uzviylik bolada nafaqat akademik ko‘nikmalarni, balki kognitiv moslashuvchanlikni — o‘zgaruvchan vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini shakllantiradi.

Tadqiqotlar ma’naviy qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud muhitda ulg‘ayayotgan yoshlarning mafkuraviy tahdidlarni saralash va ularga nisbatan shaxsiy immunitetni namoyon etish ko‘rsatkichi 40 foiz yuqori bo‘lishini tasdiqlaydi.



Pedagogikaning oltin qoidasi shundaki, bola so‘zingizni emas, harakatingizni takrorlaydi. Binobarin, bolaning qo‘liga bemaqsad telefon tutqazish uning fikrlash qobiliyatini cheklab, virtual yo‘qlik asiriga aylantirish demakdir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetolari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246.
31346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turo­n ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G‘oziddinov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy